



Shukurova Sevara Normuminova,
Guliston davlat universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail sevara4800@gmail.com

OILA VA MAHALLA INSTITUTLARINING OIV INFEKSIYASI PROFILAKTİKASIDAGI IJTIMOİY ROLINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila va mahalla institutlarining xotin-qizlar orasida OIV infeksiyasi profilaktikasidagi ijtimoiy roli, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ijtimoiy determinantlar, sog‘lik savodxonligi, stigma va gender omillarining profilaktika samaradorligiga ta’siri empirik ma’lumotlar asosida asoslab berilgan.

Аннотация. В данной статье научно проанализирована социальная роль институтов семьи и махалли в профилактике ВИЧ-инфекции среди женщин, выявлены существующие проблемы и механизмы их решения. На основе эмпирических данных обосновано влияние социальных детерминант, уровня санитарной грамотности, стигмы и гендерных факторов на эффективность профилактических мер.

Annotation. This article analyzes the social role of family and mahalla (community) institutions in preventing HIV infection among women, identifying existing challenges and effective mechanisms for improvement. The study scientifically substantiates the impact of social determinants, health literacy, stigma, and gender-related factors on the effectiveness of prevention measures based on empirical evidence.

Tayanch so‘zlar: OIV infeksiyasi, mahalla, oila, xotin-qizlar salomatligi, ijtimoiy determinantlar, stigma, gender tenglik, profilaktika, sog‘lik savodxonligi, ijtimoiy himoya, intervensiya modeli, sotsiologik yondashuv.

Ключевые слова: ВИЧ-инфекция, махалля, семья, здоровье женщин, социальные детерминанты, стигма, гендерное равенство, профилактика, санитарная грамотность, социальная защита, интервенционная модель, социологический подход.

Keywords: HIV infection, mahalla, family, women’s health, social determinants, stigma, gender equality, prevention, health literacy, social protection, intervention model, sociological approach.

Kirish. O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy barqarorlik, aholi farovonligi va sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda mamlakatda mahalla va oila institutlarini mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda jamoat salomatligini yaxshilashga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmogda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-88 hamda PF-158, PF-60, PQ-14 kabi qator Farmon va Qarorlarida aholi salomatligini muhofaza qilish, kasalliklarning oldini olish, ayniqsa, xavf guruhlari orasida profilaktik faoliyatni kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan¹.

Global miqyosda esa OIV infeksiyasining tarqalishi sog‘likni saqlash tizimi bilan bir qatorda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar kesishgan murakkab jarayon sifatida baholanmogda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda 85,6 milliondan ortiq inson OIV/OITS bilan kasallangan bo‘lib, ulardan 40,4 million nafari ushbu kasallik oqibatida vafot etgan². Hozirda OIV bilan yashayotganlarning 53 foizini ayollar va qizlar tashkil etishi ushbu muammoning gender nuqtayi nazardan ham dolzarbligini ko‘rsatadi³.

O‘zbekiston sharoitida OIV infeksiyasining tarqalishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar qatoriga aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati, migratsiya jarayonlari, sog‘lik savodxonligi pastligi, gender tengsizliklari, stigma va diskriminatsiya kabi ijtimoiy determinantlar kiradi. Bu omillar, ayniqsa, ayollar va yosh qizlar orasida infeksiyaning oldini olish mexanizmlarini zaiflashtirib, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar sonining ortishiga olib kelmogda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlar orasida OIVga oid axborot yetishmovchiligi, ruhiy bosim, oilaviy iqtisodiy qaramlik va ijtimoiy qo‘rquv tufayli profilaktik xulq-atvor yetarli darajada shakllanmagan.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham OIV infeksiyasi ijtimoiy konstruksiya, stigma, ijtimoiy tengsizlik, “kasal inson roli”, institutsional cheklovlar kabi sotsiologik tushunchalar orqali izohlanadi⁴. Ushbu yondashuvlar kasallikni faqat tibbiy holat emas, balki jamiyatda shakllanuvchi ijtimoiy ma‘no va munosabatlar tizimi sifatida talqin qiladi. O‘zbekiston sharoitida ham mazkur nazariy qarashlardan kelib

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-88-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-7534275>

² NAIDS. Global HIV & AIDS statistics — 2024 fact sheet. — Geneva: UNAIDS, 2024 // <https://www.unaids.org/en/resources/fact-sheet>

³ UNAIDS. Women and HIV/AIDS: Gender overview. — Geneva: UNAIDS, 2023 // <https://www.unaids.org>

⁴ Parsons T. The Social System. — New York: Free Press, 1951. — 575 p.

***Mazkur ilmiy
maqolaning
asosiy maqsadi
— O‘zbekiston
sharoitida xotin-
qizlar orasida OIV
infeksiyasining
tarqalishiga ta’sir
etuvchi ijtimoiy
determinantlarni
aniqlash, ularning
ijtimoiy tabiatini
sotsiologik nuqtayi
nazardan tahlil
qilish hamda
genderga sezgir
profilaktika
strategiyalarini
ilmiy asoslashdan
iborat.***

chiqib, ayniqsa, xotin-qizlar salomatligini himoya qilishda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni alohida e’tibor talab etadi⁵.

Shu bois, tanlangan mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, OIV infeksiyasi tarqalishining ijtimoiy omillarini kompleks tahlil qilish zaruratidan, ikkinchi tomondan, xotin-qizlar orasida sog‘liq savodxonligi, ijtimoiy himoya va profilaktik madaniyatni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarga ehtiyojning yuqoriligi bilan belgilanadi. Mazkur mavzu fan va amaliyot kesishmasidagi mavzu bo‘lib, uning o‘rganilishi O‘zbekiston sharoitida genderga sezgir profilaktika modeli va innovatsion ijtimoiy mexanizmlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur ilmiy maqolani yozishdan asosiy maqsad — O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlar orasida OIV infeksiyasining tarqalishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy determinantlarni aniqlash, ularning ijtimoiy tabiatini sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilish hamda genderga sezgir profilaktika strategiyalarini ilmiy asoslashdan iborat⁶.

Tanlangan muammo jahon miqyosida ham, O‘zbekiston ilmiy maktablarida ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. UNAIDS va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlariga ko‘ra, global miqyosda OIV bilan yashayotganlarning 53 foizini ayollar va qizlar tashkil etishi mazkur infeksiya gender bilan bog‘liq ijtimoiy tahdidga aylanganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston bo‘yicha esa so‘nggi yillardagi epidemiologik ma’lumotlar ayollar ulushi oshib borayotganini tasdiqlaydi⁷. Shu bilan birga, infeksiyaning tarqalishida ta’lim darajasi pastligi, iqtisodiy qaramlik, ichki migratsiya, sog‘lik savodxonligi yetishmovchiligi, stigma va diskriminatsiya kabi ijtimoiy determinantlarning kuchli ta’siri mavjud.

Fan taraqqiyoti nuqtayi nazaridan olganda kasallikni biologik jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qilish⁸ OIV infeksiyasini gender, ijtimoiy rol, tengsizlik, stigma, ijtimoiy munosabatlar kabi tushunchalar bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur virusning tarqalish mexanizmi biologik omillardan tashqari, axborot tanqisligi, mahalla darajasidagi ijtimoiy nazoratning yetarli emasligi, ijtimoiy himoyasizlik, gender stereotiplari bilan chambarchas bog‘liq.

⁵ Shukurova S.N. OIV infeksiyasi profilaktikasining ijtimoiy omillari. PhD dissertatsiyasi. — Toshkent: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, 2025. — 185 b.

⁶ Shukurova S.N. OIV infeksiyasi profilaktikasining ijtimoiy omillari. PhD dissertatsiyasi. — Toshkent: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, 2025. — 185 b.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. OITS Respublika Markazi epidemiologik axborotnomasi, 2023–2024 yillar. — Toshkent: SSV nashriyoti, 2024 // <https://minzdrav.uz>

⁸ Berger P., Luckmann T. The Social Construction of Reality. — London: Penguin Books, 1966. — 249 p.

Shu ma'noda, maqolada ko'tarilayotgan muammo – xotin-qizlar orasida ijtimoiy determinantlarning OIV tarqalishiga ta'siri umumiy sog'lik-ijtimoiy muammolar tizimida alohida o'rin tutadi. Uning o'ziga xosligi shundaki:

1. Muammo gender omiliga sezgir, ya'ni ayollar mavqeyining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liqligi infeksiyaning tarqalishiga bevosita ta'sir qiladi;

2. OIVga oid stigma va stereotiplar xotin-qizlar uchun ikki karra ijtimoiy bosim va psixologik xavf tug'diradi;

3. Oila va mahalla institutlarining profilaktikadagi roli yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan, bu esa yangi ilmiy yondashuvlarni talab etadi;

4. Ayollar salomatligini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining kuchayib borishi ushbu mavzuni amaliy jihatdan ham dolzarb qiladi.

Shu asosda mazkur maqola fan va amaliyot kesishmasida joylashgan bo'lib, ijtimoiy determinantlarni yangi ilmiy asosda tahlil qilish va genderga yo'naltirilgan profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Xotin-qizlar orasida OIV infeksiyasining tarqalishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy determinantlar ko'p omilli, murakkab va tizimli jarayon bo'lib, u biologik xavf omillari bilan emas, asosan, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va axborotga oid tengsizliklar bilan belgilanadi. Mazkur infeksiya tarqalish dinamikasi dissertatsiya tadqiqotlari davomida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar, intervyular va ekspert baholari orqali har tomonlama tahlil qilingan bo'lib, xotin-qizlar guruhida yuqori xavfning shakllanishiga quyidagi omillar asosiy sabab bo'layotgani aniqlangan: kam ta'minlanganlik, ichki migratsiya, sog'liq savodxonligining pastligi, stigma va diskriminatsiya, gender tengsizliklari hamda oilaviy-iqtisodiy qaramlik.

Tadqiqot davomida ijtimoiy determinantlarning har biri sotsiologik nazariyalar (funktionalizm, konflikt nazariyasi, ijtimoiy konstruktivizm, simvolik interaksionizm) doirasida izohlanib, ularning O'zbekiston sharoitidagi konkret ko'rinishlari empirik dalillar bilan boyitilgan. Masalan, konflikt yondashuvi nuqtayi nazaridan ta'lim va tibbiy xizmatlardan teng foydalanmaslik, iqtisodiy resurslarning teng taqsimlanmasligi xotin-qizlarni virusga nisbatan himoyasiz qatlamga aylantiradi. Ijtimoiy konstruktivizmga ko'ra esa OIV haqida jamiyatdagi noto'g'ri tasavvurlar va stereotiplar xotin-qizlarni "aybdorlik", "uyat", "stigma" bosimiga duchor qiladi, bu esa tibbiy muassasalarga murojaat qilishni keskin kamaytiradi.

Dissertatsiya doirasida o'tkazilgan 600 nafar respondent orasidagi so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, ayollarning 48 foizi OIV

Xotin-qizlar orasida OIV infeksiyasining tarqalishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy determinantlar ko'p omilli, murakkab va tizimli jarayon bo'lib, u biologik xavf omillari bilan emas, asosan, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va axborotga oid tengsizliklar bilan belgilanadi.

***Dissertatsiya
materiallarida,
ayniqsa, oilaviy
bosim, iqtisodiy
qaramlik,
hamkorning
nazorati, mahalla
darajasidagi
stigma kabi
omillar ayollarni
xavf guruhiga
yaqinlashtiruvchi
asosiy faktor
sifatida qayta-qayta
takrorlangan.***

haqida to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotga ega, 37 foizi esa tibbiy ko'rikdan o'tishdan "ijtimoiy ayblanishdan qo'rqib" bosh tortadi⁹. Bu ko'rsatkichlar genderga sezgir profilaktika yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Dissertatsiya materiallarida, ayniqsa, oilaviy bosim, iqtisodiy qaramlik, hamkorning nazorati, mahalla darajasidagi stigma kabi omillar ayollarni xavf guruhiga yaqinlashtiruvchi asosiy faktor sifatida qayta-qayta takrorlangan¹⁰.

Muammoning yechimi sifatida dissertatsiya tadqiqotlarida ijtimoiy profilaktikaning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqilgan. Model uch asosiy blokdan iborat:

1. Axborot-kommunikatsion blok.

– xotin-qizlar uchun sog'lik savodxonligini oshirishga qaratilgan modul dasturlar;

– OIV bo'yicha mahalla, maktab-oila-mahalla tizimida axborot tarqatish;

– ayollar uchun maxfiy maslahat xizmatlarini kengaytirish¹¹.

2. Institutsional blok.

– SSV, Xotin-qizlar qo'mitasi, NNTlar, mahalla tizimi o'rtasida hamkorlik mexanizmini yaratish;

– mahalladagi profilaktika ishlarini oila psixologi va ijtimoiy xodim faoliyati bilan bog'lash;

– ayollar uchun ART (antiretrovirus terapiya) va test xizmatlaridan teng foydalanishni ta'minlovchi adolatli mexanizmlar.

3. Ijtimoiy-madaniy blok.

– stigmaga qarshi jamoaviy targ'ibot;

– ayollar mavqeyini kuchaytirishga qaratilgan gender tenglik tashabbuslarini profilaktikaga integratsiya qilish;

– oilaviy kommunikatsiyani mustahkamlash bo'yicha treninglar.

Ushbu modelni tekshirish maqsadida tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, mahalla va oila tizimida sog'lik savodxonligini oshirishga qaratilgan 4 bosqichli intervensiya sinovdan o'tkazilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, intervensiya qatnashchilarining 62 foizida OIVga oid bilimlar sezilarli darajada oshgan, stigma ko'rsatkichlari esa 27 foizga pasaygan¹². Bu esa ishlab chiqilgan yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

⁹ Shukurova S.N. OIV bo'yicha so'rovnoma natijalari tahlili. Dissertatsiya materiallari. – Toshkent, 2025. – 32 b.

¹⁰ Shukurova S.N. OIV bo'yicha so'rovnoma natijalari tahlili. Dissertatsiya materiallari. – Toshkent, 2025. – 32 b.

¹¹ Shukurova S.N. OIV infeksiyasi profilaktikasining ijtimoiy omillari. PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, 2025. – 185 b.

¹² Shukurova S.N. OIV bo'yicha so'rovnoma natijalari tahlili. Dissertatsiya materiallari. – Toshkent, 2025. – 32 b.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, xotin-qizlar orasida OIV infeksiyasi tarqalishining asosiy ijtimoiy omillari kompleks va o'zaro bog'liq bo'lib, ularning yechimi faqat tibbiy choralar bilan emas, balki ijtimoiy, ma'rifiy, genderga sezgir va institutsional yondashuvlar birligi orqali amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqotda taklif etilgan sotsiologik model amaliyotga joriy etilgan taqdirda ayollar salomatligini himoya qilish, mahalla bardavomligini mustahkamlash va profilaktik madaniyatni oshirishga sezilarli hissa qo'shadi.

Yakuniy qism. Xotin-qizlar orasida OIV infeksiyasining tarqalishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy determinantlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur muammo nafaqat tibbiy, balki murakkab sotsiologik, madaniy va gender omillar bilan belgilanadigan ko'p qatlamli ijtimoiy jarayondir. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy xulosalar, bir tomondan, O'zbekiston sharoitida OIV profilaktikasida ijtimoiy, ma'rifiy va institutsional omillarning o'rni yetarlicha tadqiq etilmaganini, ikkinchi tomondan esa xotin-qizlar salomatligini himoya qilish bo'yicha fanlararo yondashuvlar jadal takomillashuvga muhtoj ekanini ko'rsatdi.

Ilmiy tahlillar natijasiga ko'ra, xotin-qizlar infeksiya xavfiga ko'proq duchor bo'layotganining asosiy sabablari: ta'lim va sog'lik savodxonligining pastligi, iqtisodiy qaramlik, ichki migratsiya, stigma, oilaviy bosim, gender tengsizliklari va tibbiy xizmatlardan teng foydalanmaslik kabi ijtimoiy determinantlardir. Ushbu omillar o'zaro kesishgan holda xotin-qizlar uchun ikki karra ijtimoiy zaiflik maydonini yaratadi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan integrativ sotsiologik model axborot-kommunikatsion, institutsional va ijtimoiy-madaniy bloklardan iborat bo'lib, xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilishda yangicha fanlararo yondashuvni taklif qiladi. Mazkur modelning tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilgani, sog'lik savodxonligi oshganligi va stigma darajasidagi pasayish bilan tasdiqlanganligi bu yondashuvning ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Fan taraqqiyotiga qo'shilgan asosiy yangilik – OIV infeksiyasini sotsiologik nuqtayi nazardan talqin qilishda genderga sezgir ijtimoiy determinantlar tizimining (kam ta'minlanganlik, ijtimoiy himoyasizlik, stigma, axborot tanqisligi, madaniy bosim va institutsional notengliklar) kompleks shaklda asoslab berilishi. Bu yondashuv OIVni faqat biologik jarayon emas, balki jamiyat tomonidan "quriladigan" ijtimoiy voqelik sifatida tahlil qiluvchi konstruktivistik, funksionalistik va konflikt nazariyalari bilan uyg'unlashadi. Mazkur nazariy asoslar pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va ijtimoiy ish fanlarining zamonaviy tendensiyalari bilan bevosita bog'liq.

Xotin-qizlar orasida OIV infeksiyasining tarqalishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy determinantlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur muammo nafaqat tibbiy, balki murakkab sotsiologik, madaniy va gender omillar bilan belgilanadigan ko'p qatlamli ijtimoiy jarayondir.

Amaliy nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari mahalla tizimi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, sog'likni saqlash muassasalari, OAV va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikka asoslangan profilaktika mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, xotin-qizlar uchun mo'ljallangan maxfiy maslahat xizmatlari, mahalla-oila profilaktika dasturlari, gender stereotiplarini kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy kommunikatsiyalar, yoshlar va ayollar uchun sog'lik savodxonligi modullarini yaratish kabi yo'nalishlar amaliyotga joriy etilishi mumkin.

Shu tariqa, xotin-qizlar orasida OIV infeksiyasining oldini olish bo'yicha taklif etilayotgan ilmiy-amaliy yondashuvlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni kuchaytirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish va ayollar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha milliy strategiyalar bilan uyg'unlashadi. Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy, tibbiy, pedagogik va psixologik fanlar kesishmasida yaratilgan bo'lib, O'zbekiston sharoitida genderga sezgir profilaktika tizimini takomillashtirishga muhim ilmiy hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada sog'liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-88-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-7534275>
2. UNAIDS. Global HIV & AIDS statistics — 2024 fact sheet. — Geneva: UNAIDS, 2024 // <https://www.unaids.org/en/resources/fact-sheet>
3. UNAIDS. Women and HIV/AIDS: Gender overview. — Geneva: UNAIDS, 2023 // <https://www.unaids.org>
4. Shukurova S.N. OIV infeksiyasi profilaktikasining ijtimoiy omillari. PhD dissertatsiyasi. — Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, 2025. — 185 b.
5. Shukurova S.N. OIV bo'yicha so'rovnoma natijalari tahlili. Dissertatsiya materiallari. — Toshkent, 2025. — 32 b.
6. Parsons T. *The Social System*. — New York: Free Press, 1951. — 575 p.
7. Berger P., Luckmann T. *The Social Construction of Reality*. — London: Penguin Books, 1966. — 249 p.
8. Foucault M. *The Birth of the Clinic: An Archaeology of Medical Perception*. — New York: Vintage Books, 1975. — 215 p.
9. Goffman E. *Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity*. — New York: Simon & Schuster, 1963. — 168 p.
10. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. OITS Respublika Markazi epidemiologik axborotnomasi, 2023–2024 yillar. — Toshkent: SSV nashriyoti, 2024 // <https://minzdrav.uz>
11. Shukurova S.N. OIV infeksiyasi profilaktikasining ijtimoiy omillari. Dissertatsiya xulosasi. — Toshkent, 2025. — 185 b.
12. Shukurova Sevara Normo'minova. (2024). 2030 yil - OIV epidemiyasisiz hayot sari. *tadqiqotlar.uz*, 37(1), pp. 110–114. Retrieved from <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2795>